



## XALQ DEPUTATLARI BOYOVUT TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 3-sentabr

VII-14-95-9-123-K/25

Boyovut tumani

### **Boyovut tumanidagi shaharcha va qishloqlarining ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi O'RQ-635-son Qonunining 27-moddasiga asosan shaharchalarning, qishloqlarning va ovullarning chegaralarini o'zgartirish xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan tegishli tumanlar hokimlarining iltimosnomalari asosida amalga oshiriladi. Tegishli tuman hokimi xalq deputatlari viloyat Kengashiga **tegishli tuman xalq deputatlari Kengashining shaharcha, qishloq yoki ovulning chegaralarini o'zgartirish masalasiga doir qarorini taqdim etilishi** belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to'g'risida"gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2025-yil 28-maydagi 125-9-123-Q/25-sonli qaroriga asosan Respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo'linmasi tomonidan Sirdaryo viloyati Boyovut tumanining ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko'ra umumiy perimetri va maydonlari aniqlandi. Tumandagi shaharcha va qishloqlarning umumiy uzunligi va umumiy maydonlari quyidagilardan iborat,

#### **Jumladan:**

1. Buyuk yurt qishlog'ining umumiy perimetri 39120,76 metr, umumiy maydoni 7388,33 gektar;
2. Darvozaqir qishlog'ining umumiy perimetri 37655,49 metr, umumiy maydoni 5857,14 gektar;
3. Dehqonobod qishlog'ining umumiy perimetri 29994,11 metr, umumiy maydoni 2919,24 gektar;
4. Do'stlik qishlog'ining umumiy perimetri 50939,70 metr, umumiy maydoni 7065,34 gektar;
5. G'allakor qishlog'ining umumiy perimetri 46587,12 metr, umumiy maydoni 10243,48 gektar;
6. Istiqbol qishlog'ining umumiy perimetri 28662,17 metr, umumiy maydoni 2561,20 gektar;
7. Laylakko'1 qishlog'ining umumiy perimetri 23043,97 metr, umumiy maydoni 1441,71 gektar;

8. Madaniyat qishlogʻining umumiy perimetri 18293,99 metr, umumiy maydoni 1390,70 gektar;

9. Mingchinor qishlogʻining umumiy perimetri 24782,35 metr, umumiy maydoni 1805,60 gektar;

10. Olmazor qishlogʻining umumiy perimetri 34036,74 metr, umumiy maydoni 4193,49 gektar;

11. Tabarruk qishlogʻining umumiy perimetri 36065,09 metr, umumiy maydoni 5551,56 gektar;

12. Boyovut shaharchasining umumiy perimetri 18499,00 metr, umumiy maydoni 745,00 gektar;

13. Bekat shaharchasining umumiy perimetri 6907,17 metr, umumiy maydoni 165,77 gektar;

14. Markaz shaharchasining umumiy perimetri 6096,03 metr, umumiy maydoni 151,78 gektar;

15. Doʻstlik shaharchasining umumiy perimetri 9342,42 metr, umumiy maydoni 193,27 gektar;

Boyovut tumani maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib koʻrsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizigʻining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bogʻlanib, chegara nuqtalari oʻrtasidagi masofasi va chegara chizigʻining qutb yoʻnalishlari aks ettirilgan. Chegara chizigʻining burilish nuqtalari koordinatalari koʻrsatilgan.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlar palatasi Boyovut tumani filiali rahbarining axboroti tinglanib, unda Boyovut tumanining tashqi maʼmuriy-hududiy chegarasi (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-band, Bosh vazirning 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” ijrosi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Sirdaryo viloyatida ishbilarmonlik muhitini, infratuzilma va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2025-yil 6-martdagi PQ-93-son qarori va Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2025-yil 17-apreldagi 20/1-781-son bilan tasdiqlangan “Nazorat reja”sining ijrosi boʻyicha 2025-yil 23-iyulda VII-17-131-9-0-K/25-sonli Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi qarori qabul qilinganligi), Respublika aergeodeziya markazi Samarqand hududlararo boʻlinmasi tomonidan bajarilgan shaharcha hamda qishloqlar maʼmuriy-hududiy chegaralari toʻgʻrisida taqdim etilgan maʼlumotlar boʻyicha fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha oʻrganib chiqib, “Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi Qonunning 27-moddasi hamda Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunning 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

**1.** Davlat kadastrlar palatasi Boyovut tumani filiali rahbari **S.Sherbayevning** Boyovut tumanidagi maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash toʻgʻrisidagi axboroti hamda Respublika aergeodeziya markazi Samarqand hududlararo boʻlinmasi tomonidan Boyovut tumanidagi shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash boʻyicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini koʻrib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan komissiya tarkibining **2025-yil 6-avgustdagi 1/01-29-sonli yigʻilish bayoni** maʼlumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Boyovut tumanidagi shaharcha va qishloqlarining ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha tuman komissiyasi tomonidan o'rganib chiqilgan materiallarga asosan tayyorlangan taklif loyihasi ID-108673 raqam bilan 15 kun muddatga "E-Kengash" elektron tizimi (regulation.gov.uz) orqali jamoatchilik muhokamasiga e'lon qilinganligi qayd etilsin.

3. Boyovut tumanidan Guliston shahriga hamda Shirin shahriga o'tkazilayotgan yer maydonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qaroriga asosan tumanning ma'muriy-hududiy chegarasiga o'zgartirish kiritilishi inobatga olinsin.

4. Boyovut tumanidagi shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari uzunligi va maydonlari to'g'risidagi ma'lumot 1-ilovaga muvofiq, shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo'yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

5. Ushbu qarorning tasdig'i xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashidan so'ralsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining barcha o'rinbosarlari hamda xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmlariga yuklansin.

Kengash raisi



D.Uralova

Xalq deputatlari Boyovut tumani  
Kengashining  
2025-yil 3-sentabrdagi  
VII-14-95-9-123-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**Boyovut tumani hududidagi shaharcha va qishloqlarining chegaralarini belgilash  
(yoki taqsimoti) to'g'risida**


**MA'LUMOT**

<b>№</b>	<b>Shaharchalar va qishloqlar nomi</b>	<b>Chegara uzunligi (metr)</b>	<b>Yer maydoni (gektar)</b>
1	Buyuk yurt qishlog'i	39120,76	7388,33
2	Darvozaqir qishlog'i	37655,49	5857,14
3	Dehqonobod qishlog'i	29994,11	2919,24
4	Do'stlik qishlog'i	50939,70	7065,34
5	G'allakor qishlog'i	46587,12	10243,48
6	Istiqbol qishlog'i	28662,17	2561,20
7	Laylakko'l qishlog'i	23043,97	1441,71
8	Madaniyat qishlog'i	18293,99	1390,70
9	Mingchinor qishlog'i	24782,35	1805,60
10	Olmazor qishlog'i	34036,74	4193,49
11	Tabarruk qishlog'i	36065,09	5551,56
12	Boyovut shaharcha	18499,00	745,00
13	Bekat shaharcha	6907,17	165,77
14	Markaz shaharcha	6096,03	151,78
15	Do'stlik shaharcha	9342,42	193,27
	<b>Jami</b>	<b>410026</b>	<b>51674</b>
1	Guliston shahriga o'tkazilayotgan yer maydoni	17726,1	582
2	Shirin shahriga o'tkazilayotgan yer maydoni	13783,7	638,77
	<b>Jami</b>	<b>31510</b>	<b>1221</b>

Xalq deputatlari Boyovut tumani Kengashining  
2025-yil 3-sentabrdagi  
VII-14-95-9-123-K/25 -son qaroriga  
2-ilova

*Sirdaryo viloyati Boyovut tumanining  
ma'muriy-hududiy birliklar  
chegaralarini belgilash ishlari*

**CHIZMASI**



- Shartli belgilar**
- Tuman chegarasi
  - Qishloq chegarasi
  - Shaharcha chegarasi
  - Boyovut tumanidan Shirin shahriga o'tkazilayotgan yer maydoni
  - Boyovut tumanidan Guliston shahriga o'tkazilayotgan yer maydoni